

O'RTA ASRLAR OSTONASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA SHAHAR HUNARMANDCHILIGI

Mirzaliev.U¹

Bozorqulova .R²

Gulison Davlat pedagogika instituti

KEYWORDS

O'rta asrlar ,xunarmanchilik ,qishloq xo'jaligi ,ekin turlari,iqlim sharoiti ,chorvachiligi ,oziq-ovqat , sug'orish inshooti,shaxarlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolamda O'rta asrlar ostonasida qishloq xo'jaligi asosiy ishlab chiqarish tarmog'i bo'lib ,feodal tuzumini shakllantirishi,shaxarlar va xunarmanchilik esa iqtisodiy va mamuriy rivojlanish markazlariga aylangani keltirib o'tilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.16747989**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Insoniyat tarixida O'rta asrlar davri taxminan V-XV asrlar hisoblanib, qadimgi davrdan yangi zamon ostonasigacha bo'lgan murakkab davrni qamrab oladi. Rim imperiyasi qulashidan keyin Yevropa, Osiyo va boshqa hududlarda ijtimoiy-siyosiy tizim tubdan o'zgarib, yangi ijtimoiy qatlamlar shakllandi. Bu davrda qishloq xo'jaligi asosiy iqtisodiy tayanchga aylandi, shaharlar esa hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlariga aylandi. Rim imperiyasining parchalanishi natijasida ko'plab qishloq xo'jaligi yer uchastkalari yirik yer egalari qo'lga o'tdi. Yevropada feodal yer egaligi tizimi shakllandi. Dehqonlarning asosiy qismi yelarga bog'lanib qolgan holda feodallar ixtiyorida ishlab, ular uchun hosilning bir qismi natura, pul yoki bepul mehnat shaklida topshirishgan. Asosiy ishlab chiqarish quroli yer bo'lgan bu davrda ikki dalali ekin aylanish tizimi keng tarqaldi: yerdan bir qismi ekin ostida bo'lsa, qolgan qismi dam olardi. Keyinchalik, uch dalali ekin aylanish joriy etildi. Bu yangi tizim yerdan samarali foydalanishga, hosildorlikni oshirishga imkon berdi. Dehqonchilikning rivojlanishi bilan birga chorvachilik ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chorvachilik mahsulotlari – go'sht, jun, teri, sut va boshqa xomashyolar shahar hunarmandchiligi uchun asosiy resurs edi. Feodalizm davrida dehqonlar jamiyatning asosiy tayanchi edi. Ularning mehnati hisobiga feodal

¹ Gulison Davlat pedagogika instituti Dotsenti Tarix fanlar bo'yicha Falsafa Doktiri PhD

² Gulison Davlat pedagogika institute Tarix yo'nalishi talabasi

mulkdorlar boyib, harbiy kuchga ega bo'lishgan. Ayrim hududlarda erkin dehqonlar saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi majburiy majburiyatlar ostida yashardi. Dehqonlar yer egalari bilan o'zaro majburiyatlar asosida yashagan. Ba'zi joylarda ular o'z yerini sotib olish huquqiga ega bo'lsa, boshqa joylarda butunlay yerga bog'langan holda yashagan. Bu davlatlarning shakllanishiga xizmat qilgan.[1]

O'rta asrlar ostonasida qishloq xo'jaligining rivojlanishi aholi o'sishini ta'minladi, bu esa haharlarga bo'lgan ehtiyojni oshirdi. Dastlab qal'alar atrofida va savdo yo'llari bo'yicha joylashgan aholi punktlari ast-sekin shaharga aylandi. Hunarmandchilik shaharlarda rivojlandi: temirchilik, chirmangarlik, kulolchilik, to'qimachilik, zargarlik keng tarqaldi. Har bir hunarmand oilasi o'zining kichik ustaxonasida ishlardi. Vaqt o'tishi bilan hunarmandlar birlashib, sexlar tashkil etishdi. Sexlar hunarmandchilik ishini tartibga soldi, mahsulot sifatini nazorat qildi va hunarmandlar manfaatini himoya qildi.[2]

Hunarmandchilik rivoji bilan birga shaharlar bozor va yarmarkalar orqali qishloq bilan bog'landi. Savdo aloqalari ichki bozorni jonlantirib, xalqaro savdoning rivojlanishiga ham turtki berdi. Yevropa shaharlari Osiyo, Afrika va Sharqiy davlatlar bilan karvon yo'llari orqali bog'lanib, ipak, ziravorlar, qimmatbaho metall va boshqa tovarlar bilan almashinardi. Ayrim shaharlar iqtisodiy markazlarga aylanib, o'z mustaqilligini talab qila boshladi. Masalan, Yevropada shaharlar feodallar bilan kurashib, o'zini-o'zi boshqarish huquqini – kommunal huquqni qo'lga kiritgan.[3]

Qishloq xo'jaligi va shahar hunarmandchiligi o'zaro ajralmas bog'liqlikda rivojlandi. Qishloq oziq-ovqat va xomashyo bilan shaharlarga ta'minotchi bo'lsa, shahar esa qishloqqa hunarmandchilik mahsulotlarini yetkazib berdi. Bu tizim iqtisodiy barqarorlik va jamiyatning ijtimoiy tuzilishini mustahkamlagan.[4]

O'rta asrlar ohirida qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Yangi texnologiyalar plug, suv tegirmonlari, shamol tegirmonlarikabilar ishlab chiqarishni yengillashtirdi. Savdo-sotiqning kengayishi kapitalistik munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Shaharlar iqtisodiy va madaniy markaz sifatida yanada rivojlanib, yangi davrning asosiy tayanchiga aylandi. O'rta asrlar ostonasida qishloq xo'jaligi va shahar hunarmandchiligi jamiyatning iqtisodiy asosini tashkil etdi. Feodal tuzumning shakllanishi, dehqonlarning o'rni, shaharlarning rivoji va hunarmandchilikning taraqqiyoti insoniyat tarixida yangi davrni boshlab berdi. Qishloq va shahar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirdi. Bu bog'liqlik o'rta asrlar oxirida yangi iqtisodiy tuzilmalar, bozor munosabatlari va yangi davlat tizimlarining shakllanishiga asos bo'ldi.[5]

O'zbekiston hududida o'rta asrlar davrida qishloq xo'jaligi va shahar hunarmandchilikda jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, iqtisodiy madaniy hayotning shakllanishida katta o'rin egallagan. Bu davrda o'zaro bog'liq ravishda qishloq xo'jaligi rivoji shaharlarni oziq-ovqat bilan ta'minlagan bo'lsa, shahar hunarmandchiligi ishlab chiqarish, savdo va madaniyat markazlariga aylangan. O'rta asrlar boshlarida Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon havzalari qishloq xo'jaligi uchun asosiy markazlar bo'lgan. Sug'orma dehqonchilik rivojlangan, yerlarni sug'orish uchun kanallar, ariq va novlar

qurulgan. G'alla, bug'doy, arpa, sholi, kabi donli ekinlar yetishtirilgan. Shuningdek, paxta, sabzavot va mevali bog'lar ham keng tarqalgan edi. Chorvachilik ham qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lib, ot, tuya, qo'y, qoramol yetishtirilgan. Bu nafaqat oziq-ovqat, balki hunarmandchilik uchun homashyo yetkazib bergan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari shaharlarga olib kirilib, bozorlarda sotilgan. Bu savdo aloqalari orqali shaharlarning iqtisodiy qudrati oshgan.[6]

Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi yirik markazlar atrofida sug'orish tizimlari rivojlanib, ular qishloq xo'jaligi unumdorligini ta'minlagan. Buxoro va Samarqand vohalarida suv taqsimoti qadimdan to so'ngi vaqtlargacha muayyan tartibda davom etib kelgan bo'lib, Zarafshon dehqonchiligi uchun yaroqli yerlarning ma'lum bir qismigina sug'ora olgan xolos. Qadimgi miroblar daryodagi suv sathining holatini "vaqti purob" (ko'p suvlik), "vaqti miyonob" (o'rta suvlik) va "vaqti qillatiob" (oz suvlik) paytlariga bo'lganlar. Zarafshon suvi o'rtacha bo'lgan paytlarda "nimjo'y", ya'ni "yarim ariq" usulida taqsimlangan. Daryoda suv oz bo'lgan paytlarda hamma suv Buxoroga tashlangan. Bu "obpartav", ya'ni "suv tashlash" deb atalgan. "Obpartav" faqat Buxoro shahrini suv bilan ta'minlash uchun qo'llanilib, mavsumda 2-marta (may oyining 2-yarmi va avgustning oxirida) amalga oshirilgan. "Obpartav" muddati 2—4 haftaga cho'zilgan. Zarafshon suvi ` 39 «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya masalasida Buxoro Samarqandga qaram bo'lgan. Shuning uchun ham Zarafshon vodiysining yuqori qismi podsho Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng Samarqand ma'muriyati bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlarda suv masalasi alohida o'rin tutdi. 1872-yil har ikki tomon vakillari ishtirokida Samarqandda "Buxoro va samarqand suv taqsimoti" komissiyasi tuzildi. Komissiya Buxoro va Samarqand o'rtasidagi suv taqsimotining qadimgi tartiblarini muhokama qilib, mavsumda Buxoro uchun 2 marta: 15-apreldan 15- maygacha va 15 avgustdan 15-sentabrgacha daryoni "obpartav" yoki "nimjo'y" qilishga qaror qildi. 19-asrning 80—90-yillarida Samarqand vohasida sug'oriladigan dehqonchilik maydoni kengaytirilib, Zarafshon suvining ko'pi ana shu vohaning yuqori qismida sarf bo'la boshladi. Natijada Buxoro vohasi tez-tez suv tanqisligiga uchrab turdi. Suv masalasini Buxoro va samarqand suv taqsimoti komissiyasi 1894, 1895 va 1902-yillarda qayta-qayta muhokama qildi. Komissiya Buxoro va Samarqand vohalaridagi sug'oriladigan yer maydoni hajmini nazarda tutib, quyidagicha qaror qildi: 1) Zarafshonda suv qancha bo'lishidan qati nazar, daryo suvining uchdan ikki qismi (67%)ni Samarqandga, uchdan bir qismi (33%)ni Buxoroga tashlash; 2) mavsumda ikki marta (2- apreldan 20-aprel gacha va 18 avgustdan 5-sentabrgacha) Buxoroga tashlanadigan suv miqdorini ko'paytirish. Ammo bu bilan masala hal bo'lmadi. 19-asr oxirlarida Zarafshonning yuqori oqimida suv omborlari barpo etish va Buxoroga Amudaryodan suv chiqarish g'oyalari paydo bo'ldi. Bu g'oyalar 20-asr 60-yillariga kelib uzilkesil amalga oshirildi: vohaning sug'orish sistemasi qayta qurilib, gidroinshootlar ko'paytirildi, Zarafshon bo'ylab "Oq va Qora daryo suv ayirg'ichi", Harxo'r, Shohrud, Shofirkon va boshqa yirik gidrouzellar qurildi, Kattaqo'rgon, Quyimozor suv omborlari, AmuQorako'l kanali va AmuBuxoro

mashina kapali kabi ulkan sug'orish inshootlari to'liq qurilib, ishga tushirildi.[7]

O'zbekiston tabiiy-geografik sharoiti turlicha bo'lganligi bois xilma-xil sun'iy sug'orish usullaridan foydalanilgan. Soy oqavasi, havza va hovuzlarda suv to'plash, chig'iriqlar orqali chuqurdan suv chiqarish, kanal va ariqlar orqali suv keltirish qadim zamonlardanoq saqlanib qolgan. Ariq va kanallarga daryolardan saqa orqali suv chiqarish usuli juda keng tarqalgan. Bu nisbatan qulay va ishonchli usul bo'lsada, aslida nihoyatda murakkab va sermehnat ish hisoblangan. Magistral kanallar vohadagi yerlarni sug'orish uchun qazilib, daryo qirg'oqlarining holatiga qarab uning o'ng va chap sohilidan qazib chiqarilgan. Mazkur kanallardan shaxobchalar, so'ngra ulardan mayda sug'orish tarmoqlari ajralib chiqqan.[8]

XVI asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davr so'nggi o'rta asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda O'rta Osiyoda shakllangan o'zbek xonliklarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida shaharlarning tutgan o'rni beqiyos edi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, shahar tarkib topishining asosiy omillaridan biri ijtimoiy-iqtisodiy negizga borib taqalib, bu mahalliy aholining asosiy mashg'uloti bo'lgan dehqonchilikdan hunarmandchilikning mustaqil soha sifatida ajralib chiqishi bilan belgilanadi. Bu bo'linish oqibatida aholi shug'ullanadigan mashg'ulot turlariga qarab O'rta Osiyo hududidagi davlatlarning turli joylarida istiqomat qilganlar. Feodallarning ma'lum mulklari asosida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy markazlar shakllanib borgan. Odatda, bu markazlarda joylashgan mahalliy hukmdor va yer egalari qo'rg'onlari atrofi savdo-hunarmandchilik bilan mashg'ul aholi tomonidan band etib borilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotining rivojlanishi natijasida ular egallagan hududda chegaralari yanada kengaygan. Oqibatda, bunday markazlar asosida shaharlar shakllanib, asrlar mobaynida ular taraqqiyotida pillapoyalari va inqirozli bosqichlarni boshlaridan kechirganlar.[9]

Shaharlarning jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rni turli darajada bo'lgan. Ko'p hollarda shaharlar qulay geografik va topografik shartsharoitlar mavjud bo'lgan yerlarda shakllanishi va ravnaq topishi bilan xarakterlanadi. Bunday shaharlar jumlasiga o'rta asrlarning yirik siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy markazlari bo'lmish Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qarshi, keyinchalik Qo'qon va boshqalarni kiritish mumkin. XVII asr muallifi Maxmud ibn Vali Samarkand xaqida yozar ekan, quyidagilarni alohida qayd etib o'tadi: "Samarqand keng hududlari, yaxshi iqlimi, mukammallik va ulug'vorlikning boshqa vositalari mavjudligi tufayli dunyoning eng go'zal va sarishta shaharlaridan biridir". Yuqoridagi shaharlar O'rta Osiyo o'zbek xonliklarida mavjud asosiy ijtimoiy kuchlar mujassamlashgan siyosiy markazlar edi. Ularda oliy Hukmdor - xon boshliq xukmron sulola vakillari, turli amaldorlar, ruxoniylar kabi siyosiy kuchlar to'plangan bo'lib, barcha ichki va tashqi siyosat shu markazlardan turib boshqarilgan. Ular poytaxt shahar - mamlakatning asosiy savdo-iqtisodiy va madaniy markazlari sifatida rivojlanib borgan. So'nggi o'rta asrlar shaharlarining rivoj topishida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyat muhim rol o'ynagan. Bu davrda Markaziy Osiyo hududda shakllangan davlatlar - Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida kechgan suronli, qarama-qarshiliklardan iborat jarayonlar siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy

hayotda ko'plab nomutanosibliklarni keltirib chiqardi. Siyosiy notinchlik va o'zaro urushlar avj olgan kezlarda shaharlar va ulardagi hayot chuqur inqirozni o'z boshidan kechirgan. Ma'lum bir viloyat yoki shahar hududiga xukmronlikni da'vo qilgan shaxslar o'rtasidagi, o'zaro nizo va urushlar ko'p hollarda mazkur viloyatning poytaxt shahri yoki qo'rg'onining qamal qilinishi bilan kechar edi. Hukmdorlar o'rtasidagi bu kurash qamalda qolgan shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini keskin yomonlashuviga olib kelar edi. Bunday hol ko'pincha shahar va qishloqlar iqtisodiy aloqalarinig izdan chiqishiga, ulardagi hayotning vaqtinchalik turg'unlik holatiga tushib qolishiga sabab bo'lar edi.

Shahar hunarmandlari tomonidan yaratilgan turli-tuman mahsulotlarni sotish ichki va tashqi savdoning xamda savdo-iqtisodiy inshootlar - bozorlar, do'konlar, karvonsaroylar tizimining kengayishini talab etar edi. Hunarmandchilik va savdo o'rtasida ushbu o'zaro aloqadorlik savdo ahli faoliyatining yanada rivojlanishiga, hunarmandlar va savdogarlar o'rtasida ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishiga, savdo-sotiq, jarayonlariga aholining boshqa ijtimoiy qatlamlari vakillarining faol tortilishiga olib kelgan. Xususan, XVI asrga oid Jo'ybor shayxlari xujjatlaridan ayon bo'ladiki, Buxorodagi savdo-hunarmandchilik inshootlaridan sanalmish do'konlardan biri muftiy Mavlono Muhammad Aminga, xammomlardan biri amir Abdualiga, sovut tikish va sotishga ixtisoslashgan uchta do'kon aka-uka amirlar - Mirza Mashhadi va Mirza Ulug'beklarga, "Sarrolar karvon-saroyi" nomi bilan mashxur saroy esa amir Tinqilich o'gli Mirza Bog'iga qarashli bo'lgan. Shahar ahli turli tabaqa vakillarining savdo bilan faol shug'ullanliklarini ko'rsatuvchi daliliy materiallarni boshqa davrlar va boshqa shaharlar misolida, xam kuzatishimiz mumkin. Bu xolat qurilayotgan davr mobaynida shahar ahli ijtimoiy tarkibining o'zgarishiga, shahar jamiyatining mulkiy tabaqalanishida sezilarli natijalarga olib kelib, iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylangan.[10]

Shaharlar - uning atroflari va qishloqlardagi iqtisodiy hayotning rivojlanishiga ijobiy turtki beruvchi markazlar xam edi. Shahar atroflari va qishloqlarda yetishtirilgan mahsulotlar - paxta, zig'ir, g'alla, sholi, tamaki, chorvachilik mahsulotlari va ko'pgina boshqa mahsulot turlariga shaharlarda talab katta edi. Bu mahsulotlarning ayrimlari shahar hunarmandlari uchun xom ashyo edi. Qishloq ahli esa hunarmandlar yasagan turli-tuman narsalarning asosiy iste'molchilaridan biri edi. Bu esa ko'plab hunar turlarining, xususan, qishloq ehtiyojlarini qondirishga ixtisoslashgan sohalarining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Shu tariqa, shahar iqtisodiyotining yetakchi sohasi - hunarmandchilik bilan qishloqlar o'rtasida vujudga kelgan o'zaro aloqadorlik bir tomondan, qishloqdagi iqtisodiy taraqqiyotni, ikkinchi tomondan esa shahar xo'jaligi rivojini ta'minlagan asosiy omil buldi. [11]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'rta asrlar ostonasida O'zbekiston hududida qishloq xo'jaligi va shahar hunarmandchiligi bir-birini to'ldirib, yirik iqtisodiy, madaniy va savdo markazlarining shakllanishida muhim o'rin tutgan. Bu jarayon xalqning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan desak mobolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarov A. A. O'rta asrlar tarixi, Toshkent: O'qtuvchi, 2012.

2. Karimov Sh. K. Yevropa o'rta asrlar tarixi, Toshkent: Fan, 2015.
3. Qosimov B. B. Umumiy tarix, Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
4. Pirnazarov A Qadimgiv a o'rta asrlar tarixi, Toshkent: TDPU nashriyoti, 2016.
5. Qayumov A. Hunarmandchilik tarixi- Toshkent: Fan, 1998.
6. Sobirov S. Sug'orish tizimi tarixi.- Toshkent: Fan, 1994.
7. Buxoro tarixi. Tahrir hay'ati: A. Asqarov va boshq. – Toshkent: Fan, 1997.
8. Markaziy Osiyo tarixi (to'plam maqolalar). – Toshkent : Sharq, 2010.
9. A. R. Muhammadjonov. Quyi Zarafshon vodiysining sug'orilish tarixi (Qadimgi davrdan to XX asrgacha) „Fan” T;-1972
10. A.R. M uhammadjonov. O'zbekistonning qadimgi gidrotexnika inshootlari. „O'zbekiston” T; -1997
11. Piranne H. O'rta asr shaharlari va hunarmandchiligi. Toshkent: Sharq, 2009.